



## HUQUQIY YORDAM VA HUQUQIY XIZMAT KO`RSATISHDA ADVOKATURANING O`RNI

Shermatova Gulruh Akmalovna<sup>1</sup>,  
Babakulov Bekzod Normuxamedovich<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Samarqand Davlat universiteti Yuridik fakul'teti,  
Huquqshunoslik va huquqiy ta'lim kafedrası  
Magistranti,

<sup>2</sup> Samarqand Davlat universiteti Yuridik fakul'teti,  
Huquqshunoslik va huquqiy ta'lim kafedrası  
magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5815257>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-dekabr 2021  
Ma'qullandi: 25- dekabr 2021  
Chop etildi: 30- dekabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

yarashuv instituti, qonun  
ustuvorligi, jinoyat,  
fuqarolik, iqtisodiy va  
ma'muriy qonunchiligi,  
konsepsiya, inson  
huquqlari, sud – huquq  
islohati, malakali huquqiy  
yordam ko'rsatish.

Mamlakatimizda istiqloq yillarida olib borilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, huquq-tartibotni yanada kuchaytirish, jamiyatda qonun ustuvorligi hamda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun muhim zamin yaratdi. Bu esa o'z navbatida, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning haq-huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga munosib xizmat qilmoqda.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Jamiyatda

### ANNOTATSIYA

*mazkur maqolada huquqiy yordam va huquqiy xizmat ko'rsatishda advokatura institutini takomillashtirish, fuqarolarga huquqiy yordam va huquqiy xizmat ko'rsatishni samarali yo'lga qo'yish, qonun ustuvorligini ta'minlash, sud – huquq tizimida huquqiy yordam va huquqiy xizmat ko'rsatilishida advokaturaning o'ri muhimligi hozirgi kunning asosiy mavzusi ekanligi haqida.*

qonun ustuvorligini ta'minlash amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligining kafolatidir, aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqarorlikni ta'minlashning eng muhim omilidir"<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyaasi to'g'risida"gi Farmoni bilan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi belgilab olindi. Biz tahlil qilayotgan "yuridik yordam" va "yuridik

<sup>1</sup> [www.uzlidep.uz//Sh.Mirziyoyev](http://www.uzlidep.uz//Sh.Mirziyoyev). Saylovoldi dasturi.



xizmat” tushunchalari mazkur Strategiyaning dolzarb masalalaridan biri sifatida, uning ikkinchi asosiy yo`nalishining bir qismi hisoblanadi. Unda huquqiy yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilashga qaratilgan huquqiy islohotlarni yanada kuchaytirish muhim masalalardan biri sifatida qaralgan. Qonun ustivorligi yo`nalishdagi bu kabi muhim qadam istiqbolda mamlakatimizda chinakamiga demokratik prinsiplar ustuvorligiga asoslangan ochiq fuqarolik jamiyatini barpo etishga hamda jamiyatimizda har bir fuqaroning huquq va qonuniy manfaatlarining to`laqonli ro`yobga chiqarilishiga puxta zamin yaratadi. Bu o`z navbatida, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko`zlangan natijalarni qo`lga kiritishga munosib xizmat qiladi.

Qonuniylik va qonun ustuvorligini ta`minlashda aholiga huquqiy xizmat ko`rsatish, uning sifatini yangi bosqichga olib chiqish masalasi bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan ekanligi hech kimga sir emas. Sababi, huquqiy xizmat ko`rsatishning samarali yo`lga qo`yilishi, qolaversa, har bir jismoniy va yuridik shaxsning huquq to`g`risidagi ma`lumotlariga bo`lgan talab hamda ehtiyojlarining munosib darajada qondirilishi davlat va jamiyat hayotida huquqiy tartibotni mustahkamlashga o`zining sezilarli ta`sirini ko`rsatadi. Mazkur masalaga e`tibor qaratib E.Kan`yazov ta`kidlaydiki, “bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat va xo`jalik boshqaruvi organlari bilan xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning o`zaro munosabatida huquqiy hujjatlar sifatli va asosli bo`lishi lozim. Bu esa, avvalo, davlat

va xo`jalik boshqaruvi organlarining yuridik xizmat bilan bog`liq ishlari zimmasiga katta mas`uliyat yuklaydi”<sup>2</sup>.

Ta`kidlash joizki, yuridik xizmat ko`rsatish korxonasi, tashkilot, idora va muassasalardagi maxsus bilimlarga ega bo`lgan sub`ektlar tomonidan amalga oshiriladi. Har bir korxonasi yoki tashkilotdagi yuridik xizmatning u yoki bu darajasi eng avvalo, ushbu idoraning huquqshunos kadrlari faoliyatida namoyon bo`ladi. Biroq, amaldagi qonunchilikda aholiga huquqiy xizmat ko`rsatish maxsus lisenziyaga ega bo`lgan advokatlar tomonidan ham amalga oshirilishi mumkinligi nazarda tutilgan. Shu bois, mamlakatimizda aholiga malakali yuridik yordam ko`rsatish vazifasi maxsus qonun asosida advokatura instituti tomonidan amalga oshiriladi.

Ma`lumki, istiqloq yillarida Respublikamizda mazkur soha taraqqiyoti, uning faoliyati samaradorligini yanada oshirish yo`nalishida muayyan islohotlar amalga oshirildi, uning huquqiy asoslari takomillashtirilib, advokatlarning fuqarolik, iqtisodiy, jinoyat va ma`muriy sudlov sohasidagi o`rni hamda mavqei kuchaytirildi. Ayniqsa, jinoyat prosessida “guvohning advokati” tushunchasining amaldagi qonunchilikka kiritilishi hamda uning huquqiy mustahkamlanganligi jinoyat ishlarining tergov jarayonlarida nafaqat fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalda kafolatlashga, balki milliy qonunchiligimizning xalqaro standartlar talablariga muvofiqini ta`minlashga huquqiy zamin yaratdi.

<sup>2</sup> Kan`yazov E.S. Yuridik xizmat samaradorligi – hayotiy zarurat //http://huquqburch.uz/uz/view/457



Aytish joizki, advokaturaning aholiga huquqiy xizmat ko'rsatish borasidagi faoliyati miqyosi chindan ham juda keng. Chunki, bugungi kun hayoti, davlat va jamiyat hayotidagi ijtimoiy munosabatlarning jadallik bilan o'sib borishi, fuqarolar va yuridik shaxslar o'rtasida vujudga kelgan munosabatlarning turli-tumanligi, qolaversa kundan-kunga yangicha ijtimoiy munosabatlarning paydo bo'lishi, bunday vaziyatlarda yuzaga keladigan har qanday muammoli holatlarning huquqiy echimini topish esa faqatgina yuridik vositalar orqali amalga oshib, bu esa malakali huquqiy xizmat ko'rsatishga tayanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining ikkinchi ustuvor yo'nalishida mazkur yo'nalishda amaldagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish ko'zda tutilgan. Binobarin, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy sud ishlari ko'rilishida advokatning rolini kuchaytirish maqsadida advokat tomonidan dalillarni to'plash va ularni jinoyat ishi materiallariga qo'shish mexanizimining yangi tartib-taomillarini ishlab chiqish nazarda tutilmoqda. Shuningdek, sudgacha va sud ishi yuritishda advokat tomonidan yuridik yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan masalalar bo'yicha davlat organlari va tashkilotlaridan ma'lumotnomalar, tavsifnomalar va boshqa hujjatlarni, ekspertlarning yozma xulosalarini, mutaxassislarning ma'lumot-maslahatlarini so'rash va olish tartibini aniqlashtirish masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Masalaga bu jihatdan yondashish huquqiy xizmatlar ko'rsatish sohasida advokatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida, xususan,

dastlabki tergov va surishtiruv organlari tizimidagi mavqeini yana bir bor yuqori pog'onaga ko'tarishga qaratilgan sa'y-harakatdir desak, xato bo'lmaydi. Ayni ushbu masala, ya'ni advokat tomonidan yuridik yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan masalalar bo'yicha davlat organlari va tashkilotlardan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarni, ekspertlarning yozma xulosalarini, mutaxassislarning ma'lumot-maslahatlarini so'rash va olish jarayonlarida vujudga kelayotgan munosabatlar bugungi kunda tergov va sud ishlarini yuritish jarayonlarida jiddiy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, huquqni qo'llash amaliyotida ba'zan advokatning so'roviga ayrim bir tashkilotlar tomonidan rad javoblarini berish holatlari kuzatildi, ya'ni bunda ushbu tashkilotlar tomonidan so'ralayotgan ma'lumot va axborotlar go'yoki, xizmat siri yoki boshqa sir bilan bog'liq bo'ladi. Bunday holatlar esa, oqibatda advokat himoyasi ostida manfaatlari qo'riqlanayotgan shaxs huquqlarining to'laqonli amalga oshirilishiga imkon bermasligiga yoki bo'lmasa uning manfaatlariga jiddiy ziyon etkazilishiga ham olib kelishi mumkin. Shuni nazarda tutib, qonun chiqaruvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 197<sup>1</sup>-moddasi bilan to'ldirib, unda advokatning so'roviga javob bermaganlik uchun qat'iy tarzda ma'muriy javobgarlik belgilab qo'yildi. Biroq, hozirda sud amaliyotida mazkur norma asosida javobgarlikka tortilgan davlat organlari va mansabdor shaxslar doirasi juda kam.

Shuning uchun ham mamlakatimizda yuridik xizmat ko'rsatish tizimini istiqbolda yanada takomillashtirish, to'g'rirog'i, uning



qonunchilik asoslarini mustahkamlash yo`nalishida muayyan vazifalar belgilab olinganligi quvonarli holdir. Bunda quyidagi ikki muhim yo`nalishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Xususan, fuqarolik va iqtisodiy nizolarni sudgacha hal qilish jarayonida, shuningdek jinoyat prosesida tamonlarni yarashtirish tartib-taomilida advokat ishtirokining kengaytirish; sud ishini yuritishda ishtirok etish uchun advokat orderini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibini qayta ko`rib chiqish.

Bevosita yuridik yordam tushunchalariga to`xtaladigan bo`lsak, "Yuridik yordam" - deganda yuristlar tomonidan jismoniy shaxslarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda, ularning huquq va erkinliklarini ta`minlashda, shuningdek yuridik shaxslarning buzilish xavfi mavjud bo`lgan yoki buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ko`rsatiladigan faol professional yordami tushuniladi. Ta`kidlash joizki, yuridik yordam asosan advokatlar va yuridik xizmat xodimlari tomonidan ko`rsatiladi, shuningdek bunday yordamni sud`ya, tergovchi, surishtiruvchi, notarius va boshqa yuridik kasb egalari, yuridik klinikalarda esa yuridik oliy o`quv yurtlari talabalari va magistrantlari ham ko`rsatishlari mumkin<sup>3</sup>.

Mana endi yuridik xizmat ko`rsatishning tushunchasiga ta`rif beradigan bo`lsak, "Yuridik xizmat" bu

asosan yuristlar yoki belgilangan tartibda davlat organlari, nodavlat notijorat hamda boshqa tashkilotlar tomonidan shartnomaga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarga ayrim huquqiy masalalar bo`yicha, qoida tariqasida, haq evaziga xizmat ko`rsatish tushuniladi<sup>4</sup>. Haq evaziga xizmat ko`rsatish shartnomasi O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining shartnoma majburiyatlari tizimiga ilk bor alohida bob sifatida kiritilgan.

Bu toifa shartnomalar o`z mohiyatiga ko`ra, turli-tuman harakat va faoliyatdan iborat bo`lib, qonunda ularning to`la ro`yxati berilmagan. Haq evaziga xizmat ko`rsatish shartnomasining predmeti boshqa xizmatlar bo`lishi ham mumkin.

Professor B.Ibratov haqli ravishda haq evaziga xizmat ko`rsatish shartnomalari jumlasiga yuridik xizmat ko`rsatishni ham kiritgan<sup>5</sup>. Bu fikr professorlar M.I.Braginskiy va V.V.Vitryanskiy tomonidan esa asoslantirilib berilgan<sup>6</sup>.

Yuridik xizmat qilish - deganda asosan yuristlar yoki belgilangan tartibda davlat organlari, nodavlat notijorat hamda boshqa tashkilotlar tomonidan doimiy yoki uzoq muddatga tuzilgan shartnomaga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy masalalar bo`yicha, qoida tariqasida, haq evaziga xizmat qilish

<sup>3</sup> Mel`nichenko R.G. Konstitusionnoe pravo na yuridicheskuyu pomosh' // Elektronnyy resurs. Rejim dostupa: [http://www.jurgorod.ru] svobodnyy; Lubshev YU.F. Kurs advokatskogo prava: Uchebnik. 2-e izdanie.- M.: OOO «Profobrazovanie», 2003.- S.289-293.

<sup>4</sup> Popondopulo V.F. Kommercheskoe (predprinimatel'skoe) pravo: Uchebnik.- M.: YUrist', 2003.- S.489-489; Braginskiy M.I., Vitryanskiy V.V. Dogovornoe pravo. Kniga tret'ya: Dogovory o

vypolnenii rabot i okazanii uslug.- M.: «Statut», 2002.- S. 213-229.

<sup>5</sup> O`zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi (II qism) -T.: "Adolat", 1999. - 187-bet.

<sup>6</sup> Braginskiy M.I., Vitryanskiy V.V. Dogovornoe pravo. Kniga tret'ya: Dogovory o vypolnenii rabot i okazanii uslug.-M.: "Statut", 2002. - S.216-227.



tushuniladi<sup>7</sup>. Demak, “yuridik xizmat qilish”, “yuridik xizmat ko`rsatish” dan birinchidan - doimiy yoki uzoq muddat davomida amalga oshirilishi, ikkinchidan - barcha huquqiy masalalar bo`yicha olib borilishi mumkinligi bilan farqlanadi.

Yuridik maslahat deganda yuristlar yoki davlat organlari, nodavlat notijorat hamda boshqa tashkilotlar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga huquqiy masalalar bo`yicha og`zaki yoki yozma ravishda maslahat berish tushuniladi.

Yuqorida qayd qilingan tushunchalarning barchasi yuridik xizmat tushunchasi bilan bevosita bog`liq bo`lib, uning mazmun va mohiyatini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuridik xizmatning mohiyati va roli haqida gapirganda, uning huquq nazariyasi fanining muhim kategoriyalaridan biri – huquq ijodkorligi kategoriyasi bilan o`zaro nisbatining ayrim jihatlariga to`xtalib o`tish maqsadga muvofiqdir.

Advokatura tomonidan xo`jalik yurituvchi sub`ektlarga yuridik yordam va yuridik xizmat ko`rsatishning huquqiy asoslari O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O`zbekiston Respublikasining 1996 yil 27 dekabrda “Advokatura to`g`risida”gi hamda 1998 yil 25 dekabrda “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to`g`risida”gi qonunlarida belgilangan.

<sup>7</sup> Lebedev K.K. Pravovoe obslujivanie biznesa (korporativnyy yurist): Ucheb.-prakt. posobie.- M.: YUrist', 2001. – S. 284-306.

O`zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 116-moddasida fuqarolarga, korxonalar, muassasa va tashkilotlarga yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko`rsatishligi belgilab qo`yilgan. Advokatura – huquqiy institut bo`lib, u advokatlik faoliyati bilan shug`ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug`ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko`ngilli, kasbiy birlashmalarini o`z ichiga oladi.

Xo`jalik yurituvchi sub`ektlar bilan advokatura (advokatlar hay`atlari, advokatlik firmalari va byurolari) o`rtasida ko`rsatiladigan yuridik xizmat hajmi, muddatlari va mazmunidan kelib chiqqan holda uch xil ko`rinishdagi shartnoma tuzilishi mumkin. Bular quyidagilardan iborat:

- a) axborot - yuridik xizmat ko`rsatish;
- b) alohida topshiriqlar bo`yicha yuridik xizmat ko`rsatish;
- v) barcha masalalar bo`yicha yuridik xizmat ko`rsatish<sup>8</sup>.

Barcha masalalar bo`yicha yuridik xizmat ko`rsatish shartnomasi, odatda, muayyan muddatga (bir yil yoki undan ortiq muddatga) tuziladi va advokatura xo`jalik yurituvchi sub`ektning barcha faoliyatini huquqiy jihatdan ta`minlashni tashkil etish majburiyatini oladi hamda xo`jalik yurituvchi sub`ektlar faoliyatida yuzaga keladigan barcha huquqiy muammolarni hal qilishga ko`maklashadi. Mazkur

<sup>8</sup> Matrasulov D. O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuridik xizmatga rahbarlikning amalga oshirilishi va tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish usullari // Tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishda yuridik xizmatning roli. Ilmiy-amaliy seminar materiallari. – .: 2006. – 15-22 b.



shartnomaga muvofiq advokatura O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi prezidentining "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 19 yanvardagi PQ-2733-son qarori amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi Qarori asosida korxonaning yuridik xizmatiga yuklatilgan vazifalarni bajaradi va ularga taqdim etilgan huquqlardan foydalanadi. Mazkur yuridik xizmat ko'rsatish shartnomasida advokat xo'jalik yurituvchi sub'ektning xo'jalik faoliyatini chuqur o'rganish hamda ro'y berayotgan huquqbuzarliklarni va kelib chiqayotgan 170-modda nizolarni tahlil etish orqali ularni oldini olish choralari ko'rishdan manfaatdor bo'ladi. Aks holda xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyatida huquqbuzarliklar va xo'jalik nizolari ko'payishi, advokatning ish hajmini ortishiga olib keladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektga yuridik xizmat ko'rsatayotgan advokat "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 19 yanvardagi PQ-2733-son qarori amalga oshirish chora-tadbirlari haqida"gi Qarorda belgilab

qo'yilgan huquqlardan tashqari, advokat sifatida maxsus huquqlarga ham ega. Mazkur huquqlar O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasida belgilab qo'yilgan.

Mazkur huquqlar advokaturaning mavqeini oshirishda muhim rol o'ynamoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 maydagi "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarining mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"PF-5441-sonli Farmonini qabul qilinishi advokatura faoliyatini jonlantirish va u tomonidan yuridik yordam va xizmat ko'rsatish sifati yaxshilanishiga imkoniyat yaratdi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonida ham advokatura asosiy yuridik xizmat ko'rsatuvchi tashkilot vazifasini bajarmoqda. SHuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarining xo'jalik nizolarini hal etish va xo'jalik shartnomalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun advokatura xizmatidan foydalanish imkoniyatlarining kengayayotganligi ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim omil bo'lib hisoblanadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [www.uzlidep.uz//Sh.Mirziyoyev](http://www.uzlidep.uz//Sh.Mirziyoyev). Saylovoldi dasturi.
2. E.S.Kan'yazov, Yuridik xizmat samaradorligi - hayotiy zarurat //http://huquqburch.uz/uz/view/457
3. R.G.Mel'nichenko, Konstitusionoe pravo na yuridicheskuyu pomosh'././ Elektronniy resurs. Rejim dostupa: [http://www.jurgorod.ru] svobodniy; Lubshev Yu.F. Kurs advokatskogo prava: Uchebnik. 2-e izdanie.- M.: OOO "Profobrazovanie", 2003.- S.289-293.



4. V.F.Popondopulo, Kommercheskoe (predprinimatel'skoe) pravo: Uchebnik.– M.: YUrist', 2003.– S.489-489; M.I.Braginskiy, V.V.Vitryanskiy, Dogovornoe pravo. Kniga tret'ya: Dogovori o vipolnenii rabot i okazanii uslug.– M.: "Statut", 2002.– S. 213-229.
5. O`zbekiston Respublikasining Fuqarolik huquqi (II qism) –T.: "Adolat", 1999. – 187-bet.
6. M.I.Braginskiy, V.V.Vitryanskiy, Dogovornoe pravo. Kniga tret'ya: Dogovori o vipolnenii rabot i okazanii uslug.-M.: "Statut", 2002. – S.216-227.
7. K.K.Lebedev, Pravovoe obslujivanie biznesa (korporativniy yurist): Ucheb.-prakt. posobie.- M.: Yurist', 2001. – S. 284-306.
8. D.Matrasulov, O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan yuridik xizmatga rahbarlikning amalga oshirilishi va tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish usullari // Tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishda yuridik xizmatning roli. Ilmiy-amaliy seminar materiallari. – .: 2006. – 15-22 b.